

UDC: 347.471+316.3(045)(575.1)

JAMOATCHILIK NAZORATINI TA'MINLASHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ISHTIROKINING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Jahonov Shohruh Shuhrat o'g'li,
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0002-1119-2250
e-mail: jahonovshohruh@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari va davlatning samarali hamkorligi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qiluvchi hamkorlik shakli sifatida dolzarb hisoblanishi tahlil qilingan. Demokratik tartib-qoidalar asosida shakllantirilgan davlat hokimiyati apparati faoliyati samaradorligi, jumladan, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining mavjudligi, jamoatchilik nazoratiga bugungi kunda hokimiyatga bosim vositasi sifatida emas, balki fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi uyg'un muloqot usuli sifatida qaralishi hamda jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni bartaraf etishga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanishi o'rganilgan. Mamlakatimizda jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari shakllantirilgan bo'lsa-da, bu boradagi qonunchilik normalarini takomillashtirish mexanizmlari hali ham yetarli emasligi, shu munosabat bilan fuqarolik jamiyati institutlariga samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish imkonini beruvchi qonunchilik normalarining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari bayon etilgan. Bundan tashqari, mamlakatimizda jamoatchilik nazoratining muhim subyektlaridan biri bo'lgan ommaviy axborot vositalari faoliyatini takomillashtirish maqsadida Konstitutsiya va qonunlarga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik nazorati, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati, Konstitutsiya, islohot, so'z erkinligi, axborot olish, axborot tarqatish.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАВОВОЙ БАЗЫ УЧАСТИЯ СМИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ

Жахонов Шохрух Шухрат угли,
самостоятельный соискатель

Аннотация. В статье анализируется тот факт, что в развитых странах эффективное сотрудничество институтов гражданского общества и государства считается наиболее актуальной формой их взаимодействия, решающей социальные и экономические проблемы. Эффективность государственного властного аппарата, сформированного демократическими процедурами, в том числе наличие общественного контроля за деятельностью государственных органов со стороны институтов гражданского общества, общественный контроль сегодня являются не средством давления на правительство, а отношениями между гражданским обществом и властью. В статье общественный контроль рассматривается как способ гармоничного общения и один из основных факторов, служащих снятию социальной напряженности в обществе. Хотя в нашей стране сформированы правовые

основы общественного контроля, необходимо дальнейшее совершенствование его правовых механизмов, в связи с этим должны быть решены вопросы разработки действенных правовых механизмов, позволяющих институтам гражданского общества реализовывать общественный контроль. Кроме того, обсужден и предложен ряд изменений и дополнений в Конституцию и законодательство нашей страны в целях совершенствования деятельности средств массовой информации, являющихся одним из важных субъектов общественного контроля в нашей стране.

Ключевые слова: общественный контроль, средства массовой информации, гражданское общество, Конституция, реформа, свобода слова, получение информации, распространение информации.

ISSUES OF IMPROVING THE LEGAL FRAMEWORK FOR MEDIA PARTICIPATION IN PUBLIC SCRUTINY

Jakhonov Shakhrukh Shukhrat ugli,
Independent Researcher

Abstract. *The article analyses the fact that in developed countries effective cooperation between institutions of civil society and the state is considered to be the most actual form of their interaction, solving social and economic problems. The effectiveness of the state apparatus, formed by democratic procedures, including the presence of public control over the activities of public authorities on the part of civil society institutions, public control today is not a means to pressure the government, but the relationship between civil society and government. The article considers public control as a way of harmonious communication and one of the main factors serving to ease social tensions in society. Although the legal basis for public control has been established in our country, its legal mechanisms need to be further improved. In this regard, the issues of developing effective legal mechanisms that would allow civil society institutions to implement public control must be resolved. In addition, several amendments and additions to the Constitution and legislation of our country are discussed and proposed in order to improve the activities of the media, which is one of the important subjects of public control in our country.*

Keywords: *public control, mass media, civil society, Constitution, reforms, freedom of speech, receiving of information, dissemination of information.*

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik huquqiy islohotlarning muvaffaqiyati va samaradorligi ko'p jihatdan ommaviy axborot vositalari faoliyatiga ham bog'liq. Bugungi kunda mamlakatimizda qaror topayotgan fuqarolik jamiyatining xususiyatlaridan biri – uning tarkibiy institutlaridan hisoblangan ommaviy axborot vositalarining demokratik islohotlardagi rolining tobora yuksalib borayotganligidir. Ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida shakllanishi, mustahkamlanish xususiyatlari, ularning davlat organlari bilan munosabati va eng muhimi, ular ustidan

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatini tadqiq etish dolzarb nazariy-huquqiy muammolar sirasiga kiradi.

Fuqarolik jamiyatida davlat hokimiyati Konstitutsiya va qonunlar bilan tizginlanib, davlat, uning organlari va mansabdor shaxslari keng jamoatchilik nazorati ostida faoliyat yuritadi. Boshqacha aytganda, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zaruriy shartlaridan biridir. Ayniqsa, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, uni isloh etish va modernizatsiya qilish, hayotimizning barcha sohalarida liberallashtirish jarayonlarini jadal-

lashtirish, qonunlar ijrosini ta'minlashda davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash o'ta muhim.

Jamoatchilik nazoratining samaradorligi fuqarolarning bu jarayonlarga safarbarlik darajasining pastligi va jamoatchilik manfaatlarining sust ifoda etilishi bilan bog'liq emas. Jamoatchilik nazorati funksiyalari fuqarolik jamiyatining o'ziga xos funksiyalari sohasiga to'la mos keladi. Chunki me'yoriy-huquqiy bazaning zaifligi va jamoatchilik nazorati institutiga nisbatan ishonchning pastligi nodavlat sektorning faol emasligini anglatmaydi. Jamoatchilik nazorati samaradorligi bir qator omillar bilan belgilanadi: aholining fuqarolik jamiyatiga munosabati, keng jamoatchilikning jamoatchilik nazoratiga jalb etilishi, aholining siyosiy madaniyat darajasi va davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabatlar tabiati. Jamoatchilik nazorati mexanizmlari ishining yetarlicha shaffof emasligi amaldagi jamoatchilik nazorati subyektlariga nisbatan ishonchsizlik, ommaviy norozilik ko'rinishlarining paydo bo'lishi uchun asos bo'lishi mumkin. Masalan, odamlarning korrupsiyaga qarshi harakatlari to'liqini, mansabdorlarning axloqsizligi, oylik ish haqi va shu kabi voqealar ijtimoiy tarmoqlar hamda ayrim ommaviy axborot vositalarida tez-tez aks sado berib turadi.

Jamoatchilik nazoratining turli ta'riflari mavjud. Jamoatchilik nazoratining asosiy belgilarini qamrab oluvchi quyidagi ta'rifdan foydalanish maqsadga muvofiq: "Jamoatchilik nazorati – bu jamoat birlashmalarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining amaldagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlash hamda baholash bo'yicha faoliyati" [1]. Biz ham ushbu fikrlarga qo'shilamiz.

Material va metodlar

Maqolada tarixiylik metodi yordamida jamoatchilik nazoratining tarixiy shakllari haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, maqolada analiz va sintez, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Bu metodlar yordamida jamoatchilik nazorati haqida

olimlarning qarashlari bayon etilgan. Shuningdek, prognozlash metodi hamda tizimli, funksional yondashuvlar qo'llangan.

Tadqiqot natijalari

2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yilga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni e'lon qilindi. Mazkur Taraqqiyot strategiyasining "Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish" deb nomlangan 12-maqsadida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, hayotda chinakam ko'ppartiyaviylik muhitini shakllantirish, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish, sud-huquq va ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlarni jadallashtirish, ayniqsa, ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki ommaviy axborot vositalari fuqarolarni sodir bo'layotgan voqealardan o'z vaqtida xabardor qilishi, mamlakatimiz va jahonda sodir bo'layotgan jarayonlardan xabardor bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishi, amaldagi qonunlar va ijtimoiy normalarga zid bo'lgan xatti-harakatlarni fosh etishi zarur. Shuningdek, jamiyat va hukumat o'rtasida ko'prik vazifasini o'tashi, boshqacha aytganda, "to'rtinchi hokimiyat" nomini oqlashi kerak.

Bundan tashqari, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida jamoatchilik nazorati subyektlari berilgan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (keyingi o'rinlarda fuqarolar deb yuritiladi), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlari hisoblanishi belgilab qo'yilgan.

Rossiya Federatsiyasi jamoatchilik nazorati haqida to'xtaladigan bo'lsak, mamlakat

Konstitutsiyasida birlashmalar erkinligi (Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 30-moddasi) va matbuot erkinligi (29-moddada)da namoyon bo'lgan siyosiy va mafkuraviy plyuralizmning amaliy ifodasi o'z o'rnini topgan.

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 29-moddasida “Har kimga fikr va so'z erkinligi kafolatlanishi, ijtimoiy, irqiy, milliy yoki diniy adovat va adovatni qo'zg'atuvchi targ'ibot va tashviqotga yo'l qo'yilmaydi. Ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy yoki lisoniy ustunlikni targ'ib qilish taqiqlanishi” bilan bir qatorda so'z erkinligi va fikr erkinligi haqida ham norma keltirib o'tilgan. Ya'ni “Hech kim o'z fikri va e'tiqodini bildirish yoki undan voz kechishga majburlanishi mumkin emas. Har bir inson har qanday qonuniy yo'l bilan axborotni erkin izlash, olish, uzatish, ishlab chiqarish va tarqatish huquqiga ega. Davlat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati federal qonun bilan belgilanadi”.

Rossiya Federatsiyasi “Jamoatchilik asoslari to'g'risida”gi Federal qonunning 4-bobida “Elektron jamoatchilik nazorati resurs markazi” avtomatlashtirilgan tizimning roli tayinlangan. Bu qonun “Tashkilotlar uchun axborot tizimi elektron jamoatchilik nazorati, elektron demokratiya texnologiyasi Rossiya Federatsiyasida mo'ljallanganligi hamda oshkoralik va ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik nazorati va uning natijalarini hisobga olish, axborot texnologiyalarining o'zaro ta'siri va jamoatchilik nazorati subyektlarining davlat organlari hamda hokimiyat va mahalliy hokimiyat organlarining o'zaro munosabatiga bag'ishlangan [2].

Tadqiqot natijalari tahlili

Shu o'rinda U. Ismoilovning “davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish uchun, birinchi navbatda, fuqarolar qarorlar qabul qilish jarayonlarida hamda davlat hokimiyati organlari faoliyatidan xabardor bo'lishlari lozim”, degan fikrlarini keltirib o'tishni o'rinli deb bilamiz [3].

Albatta, ommaviy axborot vositalari qonun ijodkorligi bilan shug'ullanmaydi, lekin bu institut ishtirokisiz davlat organlarining muhim normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va amalga oshirishdagi faoliyatini tasavvur qilish qiyin. Ular siyosiy partiyalar, jamoat va nodavlat tashkilotlari bilan birgalikda davlat va xalq o'rtasida vositachi sifatida ijtimoiy muvozanatni yaratish vazifasini bajaradi.

Ommaviy axborot vositalari chinakam to'rtinchi hokimiyat sifatida faqat fuqarolik jamiyatida mavjud bo'lib, shunday sharoitdagina matbuot jamoatchilik fikrini shakllantirish va unga ta'sir o'tkazishga qodir kuchga aylanadi. Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy qarashlarining ochiqligi va qat'iyiligi tufayli jamiyatda ta'sirchan mavqega ega bo'lishi mumkin. Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazoratining eng sinovdan o'tgan vositasidir [4].

Ma'lumki, jamoatchilik fikri, bir tomondan, jamiyatning barcha darajalarida qaror qabul qilishning qonuniy, tan olingan mexanizmlaridan biri, hokimiyatni amalga oshirishda barqaror va samarali siyosiy institutdir. Boshqa tomondan, u yoki bu hodisaga nisbatan turli ijtimoiy birliklar tomonidan bildirilgan umumiy fikr va baholardir.

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda jamoatchilik fikrining tipik tendensiyalari va shakllariga quyidagilar kiradi: hukumat saylovlari, fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etishi, matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari, yig'ilishlar, manifestlar, bayonotlar va boshqalar [5].

Hayotimizda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va yangilanish jarayonlarining mazmun-mohiyatini aholiga tez va sifatli yetkazish, yangi marralar sari safarbar etishda OAVning ta'sirchan so'zi, qo'yilgan vazifalarni sifatli amalga oshirishda faol fuqarolik pozitsiyasi suv va havodek muhim.

Ayni paytda jurnalistlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish borasida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz

ta'kidlaganidek, "Ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xodimlarining mehnat va turmush sharoitini yaxshilash, ularning mashaqqatli va mas'uliyatli mehnatini munosib baholash va rag'batlantirish, soha rivojiga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi" [6].

Demak, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi davlat va xalq o'rtasida o'ziga xos ko'priq vazifasini o'taydi. Ya'ni davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlardan aholini xabardor qilish, uning mazmun-mohiyatini tushuntirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos.

O. Abdiazimov jamoatchilik nazoratida ommaviy axborot vositalarining roli haqida fikr bildirib, "Jamoatchilik nazorati ijtimoiy voqelikda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati demokratik talablarga mosligi, siyosiy tizimning barqarorligi, unda inson huquqlari va erkinliklarining nechog'lik amalga oshirilayotganligi, milliy mentalitetimiz va boshqa ijtimoiy masalalarning matbuotda aks ettirilishi orqali namoyon bo'ladi", deb aytib o'tgan [7].

Fuqarolik jamiyatida ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati – fuqarolarning o'z huquq va burchlarini boshqalar bilan birgalikda ado etadigan, jamiyat boshqaruvini shakllantiradigan, inson – jamiyat – davlat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlab turishga xizmat qiladigan ijtimoiy institut sifatida maydonga chiqadi [8].

Jahon amaliyotida jamoatchilik nazoratini shakllantirishga doir yaxlit qabul qilingan model yo'q. Uning siyosiy mentalitet bilan bog'liq o'ziga xos murakkabliklari, ehtiyotkorlik, demokratik qadriyatlarni bosqichma-bosqich joriy etish amaliyoti mavjud. Shuningdek, tahlillar natijasi ko'rsatmoqdaki, huquqiy jihatdan "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi normalar hamma davlatlar qonunchiligida alohida hujjat sifatida uchra-

maydi. MDH miqyosida Rossiya Federatsiyasi 2015-yilda, O'zbekistonda 2018-yilda ayni shu yo'nalishda alohida qonun qabul qilgan. Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'izistonda esa bu amaliyot qonunosti me'yorlaridagina mavjud [9].

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishi va rivojlanishi bilan birgalikda rivojlanadi. Fuqarolik jamiyati rivojlanib borayotgani sari jamoatchilik nazorati uchun imkoniyatlar va istiqbollar kengayib bormoqda. Boshqa tomondan, jamoatchilik nazoratining qanchalik yuqori sur'atlarda rivojlanishi fuqarolik jamiyati institutlarining ham shunchalik rivojlanishiga olib keladi. Jamoatchilik nazoratining keng tarqalganligini fuqarolik jamiyatisiz tasavvur etib bo'lmaganidek, fuqarolik jamiyatining taraqqiyotini ham jamoatchilik nazoratisiz tasavvur etib bo'lmaydi [10].

Fikrimizcha, jamoatchilik nazorati sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni asosiy qonun ekanligi qayd etilgan. Qonun faqat jamoatchilik nazorati shakllarining asosiy tushunchalarini qamrab oladi, lekin uni amalga oshirish mexanizmini nazarda tutmaydi [11]. Bino-barin, jamoatchilik nazoratining har bir shakli ularning amalga oshirilishi va jamoatchilik nazorati sohasidagi huquqiy normalarning qo'llanishi nuqtayi nazaridan yoritilib, jamoatchilik fikrini o'rganishning o'z-o'zini tekshirish, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik monitoringi kabi shakllari ularning mazmuniga kiritilgan [12]. Ular hali jamoatchilik nazorati subyektlarining kundalik amaliyotiga o'rganmagani uchun ularni amaliyotda samarali qo'llash borasida muammolar mavjud [13]. Shu munosabat bilan jamoatchilik nazoratining barcha shakllaridan foydalangan holda jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarur.

Jamoatchilik nazoratining maqsadi davlatda qonunning amal qilishini ta'minlash, o'z vazifalarini mas'uliyatli va malakali bajarish, ya'ni samarali bo'lishga majburlashdan iborat. Jamoatchilik nazoratini rivojlantirishning jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy sharoitda shaffoflik – hokimiyat organlari faoliyati to'g'risida to'liq, ishonchli, o'z vaqtida va muntazam ma'lumot olishdir. Jamoatchilik nazorati mansabdor shaxslarni mas'uliyatli bo'lish va natijada malakali bo'lishga majbur qila olmaydi. U faqat huquq va qonunlarning buzilishiga hokimiyat e'tiborini qaratishi mumkin [14]. Ammo agar qonunda buning uchun javobgarlik nazarda tutilmagan bo'lsa yoki bu davlat organlari va xizmatchilari tomonidan korrupsiyaga yo'l qo'yilganligi yoki qonunni ijro etmaganligi (to'g'ri bajarilmagani) natijasida yuzaga kelmasa, jamoatchilik nazorati o'z-o'zidan davlatni majburlashga qodir emas.

Fuqarolik jamiyatida aholining davlat organlari bilan o'zaro aloqasida axborot muhim o'rin egallaydi [15]. Ochiq jamiyatda ommaviy axborot vositalari barcha kuchlar tuzilmalarining oshkoraligi, siyosiy jarayonning shaffofligiga hissa qo'shmoqda. Rivojlangan davlatlarda OAV orqali targ'ibot qilishda siyosiy jarayonlarga xizmat qilish – jamoatchilik nazoratini tashkil etishning ta'sirchan usulidir [16].

Xulosalar

Amaldagi Konstitutsiyamizning 29-moddasi 1-bandi quyidagicha bayon etilgan: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir". Bu bandeda har kimning o'zi istagan axborotni izlashi, olishi, tarqatishi huquqi belgilangan. Lekin savol tug'iladi: axborotni izlash, olish va uni tarqatish noqonuniy yo'l bilan bo'lsa-chi?

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 29-moddasi 4-bandida "Hech kim o'z fikri va e'tiqodini bildirish yoki undan voz kechish-

ga majburlanishi mumkin emas. Har bir inson *qonuniy yo'l bilan* axborotni erkin izlash, olish, uzatish, ishlab chiqarish va tarqatish huquqiga ega. Davlat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati federal qonun bilan belgilanadi" deyilgan. Bunda axborot olish, izlash, tarqatish qonuniy yo'l bilan amalga oshirilishiga urg'u berilmoqda.

Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasi 1-bandida ham "Har kim qonuniy ravishda istalgan axborotni izlash, olish, uzatish, ishlab chiqarish va tarqatish erkinligiga ega" ekanligi qayd etilgan. Bu yerda ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, axborotni olish, izlash, tarqatish qonuniy amalga oshirilishi belgilangan.

Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasi 2-bandida "Har kim *qonun bilan taqiqlanmagan* har qanday usulda erkin axborot olish va tarqatish huquqiga ega. Qozog'iston Respublikasining davlat sirlarini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati qonun bilan belgilanadi". Bu yerda ham axborotni olish, izlash, tarqatish qonuniy amalga oshirilishiga e'tibor qaratilmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, Konstitutsiyamizning 29-moddasi 1-bandiga "*qonuniy yo'l bilan*" degan jumlaning qo'shib, uni quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni *qonuniy yo'l bilan* izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir".

Ma'lumki, Konstitutsiya qonunchilik tizimining eng muhim va asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalari faoliyati kafolatlarining asosiy tamoyillarini o'rnatuvchi normalar belgilangan.

Aynan ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomi Konstitutsiyamizning 67-moddasida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda "Ommaviy axborot vositalari erkindir

va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi" deb belgilab qo'yilgan. Lekin bugungi kunda zamon jadallik bilan rivojlanib borayotgan bir paytda Konstitutsiyamizdagi bu normani o'zgartirishga zarurat paydo bo'lmoqda.

Konstitutsiyaning 67-moddasi ommaviy axborot vositalari faoliyatining konstitutsiyaviy asosi ekanligiga e'tibor qaratib, Konstitutsiyamiz isloh qilinayotgan bir paytda ushbu moddaga "Ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning faoliyatiga to'sqinlik qilish

yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi" haqidagi normani kiritishni taklif qilamiz. Sababi ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning huquqlari Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik o'zgarishlar va so'z erkinligiga o'zining ijobiy hissasini qo'shadi.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda "Ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashganlik" uchun javobgarlik belgilanishi maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

REFERENCES

1. Bafayev Sh.G. Sovershenstvovaniye zakonodatelnyh norm ob obshchestvennom kontrole v Uzbekistane [Improving legislation on public oversight in Uzbekistan]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2021.
2. Goncharov V.V. Pravovoye regulirovaniye instituta obshchestvennogo kontrolya: mezhdunarodnyy i zarubezhnyy opyt [Legal regulation of the institution of public control: international and foreign experience]. St. Petersburg, 2002.
3. Ismoilov U. Jamoatchilik nazorati. Jamiyat va boshqaruv [Public control. Society and governance]. Tashkent, 2002.
4. Zoirova M.N. Jamoatchilik nazoratida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish mexanizmlari [Mechanisms of increasing the role of mass media in public control]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2021.
5. Politichiskiy kommunikatsii [Political communication]. Moscow, Aspekt press, 2012.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan bayram tabrigi [Holiday greetings of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on June 27 the Day of Press and Mass Media Employees]. *Xalq so'zi – People's Word*, 2018.
7. Abdiazimov O. Fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratida matboutning o'rni va ahamiyati [The role and importance of matbout in civil society and public control]. Tashkent, 2006.
8. Abdullayev J. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining roli [The role of mass media in the formation of civil society]. Tashkent. 2008.
9. Mamatov G.S. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik nazorati va davlat axborot siyosatining uyg'unligi (O'zbekiston Respublikasi misolida) [Harmony of public control and state information policy in the information society (in the case of the Republic of Uzbekistan)]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2021.
10. Shohruh Sh.J. Jamoatchilik nazorati institutining shakllanishi va rivojlanishining asosiy tendensiyalari. [The main trends of the formation and development of the institution of public control] *Research and Education*, 2022, no. 1 (8), pp. 63-71. Available at: https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=Jamoatchilik+nazorati+institutining+shakllanishi+va+rivojlanishining+asosiy+tendensiyalari&btnG=/.

11. Jahonov Sh. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda elektron ommaviy axborot vositalari ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari [Organizational and legal basis of participation of electronic mass media in implementation of public control]. Uzbekistan and the UN: mutual cooperation and sustainable development Proceedings of the republican scientific and practical conference. Tashkent, Lawyer training center, 2022, pp. 113, 141.

12. Nazarov Sh.N. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoat tashkilotlarining roli (nazariy va huquqiy masalalar) [The role of public organizations in the formation of civil society in Uzbekistan (theoretical and legal issues)]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2009, p. 25.

13. Tolibov I. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoat fondlarining tutgan o‘rni [The role of public funds in the formation of civil society]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2009, p. 27.

14. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi [Formation of an open civil society in Uzbekistan]. Tashkent, Sharq Publ., 2003, p. 256.

15. Abdukarimov G‘. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini oshirish [Increasing the role and importance of civil society institutions in Uzbekistan]. *Fuqarolik jamiyati – Civil Society*, Tashkent, 2006, pp. 33–82.

16. Ismailov B. Davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning amaliy jihatlari [Practical aspects of implementation of public control over state activities]. Issues of formation of civil society institutions in Uzbekistan: theory and practice. Proceedings of the scientific-practical conference. Tashkent, 2007, pp. 44–49.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

MAXSUS SON

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 15,11 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 179.
TDYU tipografiyasida chop etildi.